

**«Dehqonobod kaliy zavodi» AJ boshqaruvining 2021 yil yakuni bilan
moliyaviy xo'jalik faoliyati va biznes reja ko'rsatkichlarining bajarilishi
bo'yicha hisoboti**

2021 yilda 600,2 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, reja 482,8 mlrd. so'mlik ya'ni 124,3 foizga bajarildi. Taqqoslama baholarda 440,5 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, o'tgan davrga nisbatan o'sish sur'ati 100,5 foizni tashkil etdi.

Yil davomida sof holdagi 197,4 ming tonna kaliy xlorid ishlab chiqarilib, reja 216 ming tonna, bajarilishi 91,4 foizni tashkil etdi (2020 yilda 210,0 ming tonna kaliy xlorid ishlab chiqarilgan).

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 29 martdagi 162-sonli "2021 yilda mineral o'g'itlar ishlab chiqarish va iste'mol qilishning prognoz ko'rsatkichlari" qarori tasdiqlandi. Qarorga muvofiq 2021 yilda fizik holda 360 ming tonna kaliy xlorid ishlab chiqarilishi, qoldiq mahsulot hisobiga 400 ming mahsulot sotilishi, shundan 300 ming tonnasi eksport qilinishi ko'zda tutilgan.

2021 yil uchun eksport rejada 39 000 ming AQSh dollar miqdorida belgilangan bo'lib, amalda 48 799,1 ming AQSh dollar miqdorida mahsulotlar eksport qilindi. Belgilangan reja 125,1 foizni tashkil etdi.

Hisobot yilida 1907,3 mln. so'mlik mahalliy lashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarilib reja 152 foizga bajarildi.

2021 yil yakuni bo'yicha ishlab chiqarish xarajatlarini 5,4 mlrd. so'mga qisqartirishga erishilib, rejaga nisbatan 100,1 foizga bajarildi.

Hisobot davrida iqtisodiy ko'rsatkichlarni bajarilishini biznes-reja bilan taqqoslanganda, mahsulot sotishdan 572 654 mln. so'm sof tushum olish rejalashtirilgan bo'lib, haqiqatda 666 796 mln. so'mni tashkil qilgan, natijada sof tushum olish reja ko'rsatkichi 116 foizga bajarildi yoki 94 142 mln. so'mga ko'paydi. Asosiy faoliyatning boshqa daromadlaridan 1 920 mln. so'mlik qo'shimcha daromad olindi.

2021 yil davomida davr xarajatlari 111 290 mln. so'm rejalashtirilgan bo'lib, haqiqatda 148 762 mln. so'mni tashkil qildi, ya'ni davr xarajatlari 37 472 mln. so'mga ko'paydi. Jumladan, sotish xarajatlari 38 735 mln. so'm rejalashtirilgan bo'lib, amalda 32 752 mln. so'mni tashkil etdi, ma'muriy xarajatlari 10 939 mln. so'm rejalashtirilgan bo'lib, amalda 14 452,1 mln. so'mni tashkil etdi, boshqa operatsion xarajatlari 61 616 mln. so'm rejalashtirilgan bo'lib, amalda 101 557,8 mln. so'mni tashkil etdi.

Jamiyatda 2021 yil yakunlari buyicha 36 606 mln. so'm sof foyda olish rejalashtirilgan bo'lib, amalda 57 410,3 mln. so'm sof foyda olindi. Sof foyda ko'rsatkichi 157 foizga bajarilgan yoki sof foyda hajmi 20 804 mln. so'mga ko'paydi.

O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi tomonidan ajratilgan kreditlarni jamiyat ustav jamg'armasiga kapitalizatsiya qilish natijasida ta'sisчилarning ustav kapitaliga ulushlar bo'yicha qarzi 1 604,4 mlrd. so'mni tashkil qildi.

2022 yil 1 yanvar holatiga jamiyatning jami debitorlik qarzdorligi 151,1 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lib, yil boshiga nisbatan 32,3 mlrd. so'mga oshgan.

Buning asosiy sababi xaridor va buyurtmachilarning qarzi 10,4 mlrd. so'mga, mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo'naklar 17,7 mlrd. so'mga, byudjetga soliqlar

va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha bo'nak to'lovlarining 4,2 mlrd. so'mga ko'payishi hisoblanadi.

“O'zkimyoimpeks” MChJ bilan o'zaro hisob kitoblar 12,8 mlrd. so'm, “O'zagrokimyohimoya” AJ tarkibidagi korxonalar qarzdorligining 15,7 mlrd. so'mga oshishi debitor qarzdorliklar oshishining asosiy omilidir.

2022 yil 1 yanvar holatiga jamiyatning jami kreditorlik qarzdorligi 59,4 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lib, yil boshiga nisbatan 437,2 mln. so'mga kamaygan.

Debitor qarzdorliklarni undirishni tashkil etish va jadallashtirish bo'yicha tegishli buyruq qabul qilingan bo'lib, mazkur buyruq asosida tashkil etilgan ishchi guruhlar tomonidan debitor qarzlarni undirish choralari ko'rilmogda, muddati o'tgan debitor qarzdorliklar uchun sud qarorlari chiqarilib, ijroga qaratilgan. Shuningdek, debitor qarzlarni undirish, har bir ijro harakatini monitoring qilish va ijrosini ta'minlash ishlari amalga oshirilmoqda.

Boshqaruv raisi



O. Qurbonov

(Three handwritten signatures in blue ink)